



PROSPECTS FOR DEVELOPMENT OF TOURISM INDUSTRIES IN UZBEKISTAN

Aziza Abdulkhalilova

Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

Tashken, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national tourism, pilgrimage tourism, ecotourism, ecotourism, gastronomic tourism, extreme tourism, medical tourism.

Received: 27.02.25

Accepted: 01.03.25

Published: 03.03.25

Abstract: In this article, regulatory documents aimed at the development of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan and ongoing events were studied. The article also summarizes the industries and prospects of tourism activity in our country.

O'ZBEKİSTONDA TURİZMNI TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH İSTIQBOLLARI

Aziza Abdulkhalilova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent, O'zbekiston

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy turizm, ziyorat turizmi, ekoturizm, et-noturizm, gastronomik turizm, ekstremal turizm, tibbiyot turizmi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm soxasini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy huquqiy hujjatlar, amalga oshirilayotgan tadbirlar tadqiq etildi. Shuningdek, maqolada mamlakatimizda turizm sohasining tarmoqlari va istiqbollari tahlil qilingan.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ СЕКТОРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Азиза Абдухалилова

Преподаватель, Ташкентского государственного университета востоковедения,

Доктор философии (PhD) по истории

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальный туризм, паломнический туризм, экотуризм,

Аннотация: В статье рассматриваются нормативно-правовые документы и меры,

этнотуризм, гастрономический туризм, экстремальный туризм, медицинский туризм.

направленные на развитие туристической отрасли в Республике Узбекистан. Также в статье проводится анализ различных секторов туризма в нашей стране и их перспектив.

Kirish

Jahon globallashuvi davrida turizm mamlakat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘libgina qolmay, balki milliy urf-odatlar va an’ana-larning xalqaro miqyosda keng yoyish, tarixiy merosni saqlash, xalqaro madaniy va ma’naviy aloqalarni rivojlantiradigan soha hamdir. So‘nggi yillarda respublika turizm sohasini faol rivojlantirish davlat siyosati darajasiga olib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar qabul qilingan. Ular orasida turizm sohasiga sarmoya kiritgan investorlar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etadigan hujjat – “Turizm infratuzilmasini rivojlantirish to‘g‘risidagi qonun”, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun ma’lum hududlarda resurslar va xizmatlarni birlashtirishga qaratilgan tashabbus hisoblanadigan “Turistik klasterlarni tashkil etish to‘g‘risidagi qaror”, ekologik xavfsizlik va madaniy merosni saqlashga qaratilgan “Barqaror turizmni rivojlantirish strategiyasi” kabi qonun va qarorlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Turizm sohasidagi eng muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlardan biri bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2025-yillarda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiysi” bo‘lib, unda mamlakatda turizm sohasiga qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirishning ustuvor maqsad hamda vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagи o‘rni, ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalari hamda erishilishi zarur bo‘lgan maqsadli ko‘rsatkichlar aks etgan.

“O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiysi” qabul qilinishi va ijrosi tufayli O‘zbekiston da turizmning jadal rivojlanishi ko‘zga kўrindi. Xususan, UNWTO (Jahon sayyoqlik tashkiloti) ning turizm sohasi jadal rivojlanayotgan dunyoning eng yaxshi 20 mamlakati ro‘yxatida mamlakatimiz to‘rtinchi o‘ringa ko‘tarildi. Shu bilan birga 2022-yilda O‘zbekistonda turizm daromadi 1,72 milliard dollarni tashkil yetdi.

BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi bilan 2027-yilni “Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” deb elon qilish bo‘yicha rezolyutsiyani bir ovozdan ma’qulladi. Yuqorida zikr etilgan hukumat qarorlarini yangi chora tadbirlar, yondoshuvlar, mahalliy va xalqaro darajada ilgari surilayotgan tashabbuslar O‘zbekistonda turizmning rivojlanishi hamda

davlat tashqi imidjining ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘zbekistonda turizm rivojiga qaratilgan bunday siyosat unga keng miqyosda imkoniyatlar beradi.

O‘zbekiston turizm salohiyatini oshirish maqsadida “Vatandosh”, “Student visa”, “Academic visa”, “Medical visa”, “Pilgrim visa”, “Investment visa”lari singari vizalar taqdim etish yo‘lga qo‘yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishi davomida olingen asosiy ilmiy natijalarning ishonchlilagini ta’minlash maqsadida tarix fanida qabul qilingan ilmiy uslublardan, shunindek, O‘zbekiston Statistik qo‘mitasi ma’lumotlaridan foydalanildi.

Asosiy qism

O‘zbekiston turizm salohiyati juda yuqori davlatlardan biri sanaladi. Mamlakatimiz tarixiy obidalarining YUNESKO Butunjahon meros ob’ektlari ro‘yxatiga kiritilganlari soni 200 dan oshadi . Hozirda yurtimizda tarixiy, madaniy, etnoturizm, eko turizm, tibbiyot turizmi, MICE industriya singari tarmoqlari bo‘yicha xorijliklarni o‘ziga jalb qilmoqda. Tarixiy va madaniy turizm O‘zbekiston da juda taraqqiy etgan bo‘lib, yurtimizdagи minglab o‘rta asrlar davri sharqning noyob arxetektura inshootlari sayyoqlar qiziqiniga sabab bo‘lmoqda.

Xorij turistlarini o‘ziga maxliyo etgan boy tarixiy madaniy me’ros, o‘zbek milliy urf-odat, an’analari, turmush tarzi, milliy kiyimlari, turli bezaklar va boshqalarga qiziqish mamlakatimizda etnoturizm rivojlantirish turtki bo‘lgan omillar biri sanaladi.

O‘zbekistonning qulay geografik joylashuvi, iqlim xususiyatlari, noyob qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar tarmog‘i va boy landshaftlar ekoturizm yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Hozirgi vaqtida qo‘riqlanadigan hududlar tizimiga 8 ta qo‘riqxona, 2 ta tabiiy milliy va 1 ta milliy bog’, 1 ta biosfera qo‘riqxonasi, 12 ta qo‘riqxona, 7 ta tabiiy yodgorlik kiradi .

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos milliy taomlari, mehmono‘stlik an’analari bilan gastronomik turizmni rivojlantirish salohiyatiga ega. O‘zbek milliy oshxonasi, Sharqdagi eng xilma xil va tansiq taomlardan biridir. Buyuk Ipak yo‘lining savdo karvon yo‘llarida joylashgan O‘zbekiston ko‘p asrlar davomida turli mamlakatlarning yeng qiziqarli va g’ayrioddiy taomlarini o‘ziga singdirib kelgan.

Ziyorat turizmi O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ziyorat turizmi O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki mamlakat boy diniy merosga yega bo‘lib, butun dunyodan ziyoratchilarni o‘ziga jalb qiladi. Rasmiy statistikalarda ziyorat turizmi maqsadida tashrif buyuruvchi xorijiy sayyoqlar tаshqarisida aniy ma’lumot mavjud bўлmasada,

xususiy tur firmalar yuritgan xisobotlarga ko‘ra ular, umumiy sayyohlarning 5-7% ini tashkil etishini hisobga olinganda bu yiliga 313, 9 ming kihini tashkil etadi.

Hozirda mamlakatimizda etnoturizm, agroturizm va ekoturizmni rivojlantirish, sayyohlarni jalg qilish, соҳада yangi imkoniyatlar ochish bo‘yicha mahalliy tashabbuslar qo‘llab quvvatlanmoqda. Xususan, mahalliy yo‘riqchi (gid) larni o‘qitish va xizmatlar sifatini yaxshilash dasturlari ham sektorni rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbekistonda etnoturizmni rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud. Biroq, uning to‘liq salohiyatini ochish uchun quyidagi amaliy takliflarni amalga oshirish muhimdir:

1. Etnoturizm bo‘yicha maxsus marketing strategiyalarini ish-lab chiqish: O‘zbekistonning madaniy merosini taqdim etuvchi yangi marketing kampaniyalarini yaratish.
2. Mahalliy aholini turizmga jalg qilish va ularning malakasini oshirish: Mahalliy aholiga turizm sohasida o‘qitish va malaka oshirish dasturlarini joriy etish.
3. Etnoturizm obyektlarining infratuzilmasini yaxshilash: Mehmon-xonalar, transport va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlan-tirish.
4. Xalqaro etnoturizm tarmog‘iga qo‘shilish va tajribalarni al-mash-ish: Boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik o‘rnatish va ularning et-noturizm sohasidagi tajribalarini o‘rganish.
5. Etnik an’analarni saqlash va rivojlantirish uchun mahalliy tash-kilotlar bilan hamkorlik qilish: Mahalliy an’analarni saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida tashkilotlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa

Yuqorida ko‘rilgan ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda turizmning barcha yo‘nalishlarida ulkan salohiyatlarga ega. Tarixiy-me’moriy yodgorliklar, milliy an’analar, go‘zal tabiat – bularning barchasi xorijiy sayyohlarni jalg etuvchi omillar bo‘lib xiz-mat qiladi. Bu so-halarning rivojlanishi davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda etnoturizm, ekoturizm va agroturizmni rivojlantirish ham dolzarblik kasb etmoqda. Turizmn-ing rivojlanishi mahal-liy miqyosda: aholi turmush darajasini yaxshilash uchun imkoniyat bo‘lib, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, uy mehmonxon-alari tarmog‘ining shakllanishi va qo‘srimcha daromad manbaidir. Mintaqaviy miqyosda: qo‘sni qardosh respublikalar bilan munosaba-tlarning yanada yaqinlashuvi hamda pul oqimi oshirilishidir. Global mi-qyosda: O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosining e’tirof etilishi, davlat ijobiliy imidjining shakllanishi hamda moddiy tarfdan im-koniyatlarni ortishi uchun hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 2016 йил 2 декабрь, ПҚ-2666-сон.
2. “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти Ўзбекистон Республикаси Президенти нинг Қарори. 2018 йил 6 февраль, ПҚ-3510-сон.
3. “Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ти Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2019 йил 05 январь, ПФ-5611
4. М.Амонбоев, С.Халилов. Туризм соҳасини самарали ривожлантиришда асосий имкониятларнинг илмий таҳлили ва назарий талқини. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. Тошкент – 2021 й., 5-сон.
5. Ахмедов Ж.Д., Абдурашидова Ж.Ф. Развитие экстремального Туризма в Узбекистане // Universum: экономика и юриспруденция : электрон. научн. журн. 2021. 12(87).
6. Juraturgunov H., Raimkulov M. (2023) Young-joo A., Eunice M. K. World Heritage Site Tourism and Destination Loyalty along the Silk Road: A Study of U.S. Travelers in Uzbekistan //Sustainability. – № 15(13) –
7. Qaumy F., Sobirov B. (2022) Historical and Cultural Tourism in Uzbekistan and Peculiarities of Pilgrimage Tourism in Uzbekistan//International Journal of Teaching, Learning and Education (IJTLE). –Vol-1. –Issue-3. – P.1-3.
8. Khusenova M.G., Rakhamonov Sh.Sh. The development of eco-logic tourism // European science, 2018. № 2 (34).
9. Navruz-Zoda B. et al. The destination marketing development of religious tourism in Uzbekistan // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage, 2016. T. 4. № 7. C. 9-20.
10. Абдуллоев А.Ж., Таирова М.М., Усманова АБ. Особая характеристика агротуризма // Вопросы науки и образования, 2020. № 11 (95)
- 11.Кадыров Д.Х. и др. Развитие халяльного туризма в Узбекистане // Вестник науки и образования, 2020. № 6-1 (84).
12. Zokirov, B. (2024). The role of national-cultural traditions and intangible cultural heritage in the development of ethno tourism. Science and innovation, 3(Special Issue 46), 794-796.

9. Одилов, Б. (2024). Некоторые комментарии о возможностях развития этнотуризма (на примере наманганской области, янгикурганского района). *Science and innovation*, 3(Special Issue 46), 507-510.